

DAVLAT BUDJETINING BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA MAKROIQTISODIY OMILLAR VA BUDJET-SOLIQ SIYOSATI MASALALARI

Ruzmetov Mir Sulton Dilmuradovich

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

Annotatsiya: *Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va moliyaviy xavfsizligini ta’minlashda davlat budjeti markaziy o‘rin egallaydi. Zamonaviy global iqtisodiy makonda yuz berayotgan geosiyosiy beqarorlik, xalqaro savdo zanjirlaridagi uzilishlar, inflyatsion bosimlarning kuchayishi hamda davlat xarajatlarining ortib borishi budjet barqarorligini ta’minlash masalasini iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Mazkur maqolada davlat budjeti barqarorligiga ta’sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy omillar va budjet-soliq siyosatining nazariy-amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yalpi ichki mahsulot hajmi, inflyatsiya darajasi, davlat qarzi, budjet taqchilligi, soliq bazasi va fiskal intizomning budjet barqarorligiga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida budjet-soliq siyosatini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *davlat budjeti, fiskal barqarorlik, makroiqtisodiy omillar, budjet taqchilligi, davlat qarzi, fiskal siyosat, soliq siyosati, iqtisodiy o‘shish.*

Abstract

State budget sustainability plays a crucial role in ensuring economic development and financial security. Growing geopolitical uncertainty, disruptions in global supply chains, inflationary pressures and increasing public expenditures have made fiscal sustainability one of the key priorities of economic policy. This article analyzes the theoretical and practical aspects of macroeconomic factors and budget-tax policy affecting fiscal sustainability. The study examines the impact of GDP growth, inflation, public debt, budget deficits, tax revenues and fiscal discipline on budget sustainability. Furthermore, policy recommendations for strengthening fiscal sustainability in Uzbekistan are proposed.

Keywords: *state budget, fiscal sustainability, macroeconomic factors, budget deficit, public debt, fiscal policy, tax policy, economic growth.*

Kirish

Davlat budjeti davlat moliya tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida iqtisodiyotni tartibga solish, ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish, strategik tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti nafaqat moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash vositasi, balki makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlovchi strategik instrument ham hisoblanadi.

So‘nggi o‘n yillikda jahon iqtisodiyotida yuz bergan o‘zgarishlar davlat moliyasini boshqarish mexanizmlariga yangi talablarni qo‘ymoqda. Xususan, COVID-19 pandemiyasi, xalqaro moliya bozorlaridagi keskin tebranishlar, energiya narxlarining o‘zgarishi va geosiyosiy ziddiyatlar ko‘plab mamlakatlarda budjet barqarorligiga sezilarli bosim ko‘rsatdi. Natijada davlat xarajatlari hajmi oshdi, budjet taqchilligi kengaydi va qarz yuki ortdi.

Budjet barqarorligi tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Umumiy ma’noda u davlatning uzoq muddat davomida o‘z moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini saqlab qolishini anglatadi. Fiskal barqarorlik esa davlat qarzining boshqariladigan darajada bo‘lishi, budjet taqchilligining maqbul chegaralarda saqlanishi va budjet daromadlari hamda xarajatlari o‘rtasidagi muvozanatning ta’minlanishini ifodalaydi.

Davlat budjeti barqarorligini ta’minlash masalasi zamonaviy iqtisodiyot fanining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Fiskal barqarorlik konsepsiyasi davlatning uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini saqlab qolish, budjet taqchilligi va davlat qarzining maqbul darajasini ta’minlash hamda iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini o‘zida mujassam etadi. Mazkur masala bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, budjet barqarorligi iqtisodiy rivojlanishning nafaqat natijasi, balki uning muhim sharti ham hisoblanadi.

Davlat moliyasi nazariyasining asoschilaridan biri Musgrave davlat budjetining uchta asosiy funksiyasini ajratib ko‘rsatadi: resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va iqtisodiy barqarorlashtirish. Uning fikricha, fiskal siyosat iqtisodiy sikllarni yumshatish va makroiqtisodiy muvozanatni saqlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy inqiroz davrlarida davlat xarajatlarini kengaytirish va soliqlarni moslashtirish orqali iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish mumkin.

Keyns maktabi vakillari iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlashda davlat xarajatlarining faol rolini asoslab berganlar. Ularning nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy pasayish davrida davlat xarajatlarining oshirilishi yalpi talabni rag‘batlantiradi va iqtisodiy tiklanishga xizmat qiladi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda budjet taqchilligining muntazam ravishda yuqori darajada saqlanishi davlat qarzining ortishiga va fiskal xavflarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Neoklassik iqtisodiy maktab vakillari esa fiskal intizomning ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, davlat xarajatlarining haddan tashqari ortishi xususiy investitsiyalarni siqib chiqaradi hamda iqtisodiyotda resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli davlat moliyasi tizimida muvozanatni saqlash va budjet qoidalariga qat’iy rioya qilish muhim hisoblanadi.

Stiglitz davlat budjetining samaradorligini baholashda faqat daromad va xarajatlar hajmini emas, balki ularning iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, davlat xarajatlari inson kapitalini rivojlantirish, innovatsiyalarni

rag‘batlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan taqdirda iqtisodiy o‘shishning muhim omiliga aylanadi.

So‘nggi yillarda xalqaro moliya institutlari tomonidan fiskal barqarorlikni ta‘minlashning yangi yondashuvlari ishlab chiqildi. Xususan, Xalqaro valuta jamg‘armasi budget siyosatini o‘rta muddatli rejalashtirish asosida tashkil etish, davlat qarzi monitoringini kuchaytirish hamda budget xarajatlari samaradorligini muntazam baholab borishni tavsiya etmoqda. Jahon banki ekspertlari esa davlat moliyasini boshqarishda raqamlashtirish va natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish mexanizmlarining ahamiyatini alohida qayd etadilar.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ham budget barqarorligini ta‘minlash masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar davlat moliyasini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni talab qilmoqda. Xususan, o‘rta muddatli budjetlashtirish tizimining joriy qilinishi, “Ochiq budget” platformasining ishga tushirilishi hamda davlat moliyasini boshqarishning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o‘tilishi fiskal barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, budget barqarorligi ko‘plab omillarning o‘zaro ta‘siri natijasida shakllanadi[1]. Ushbu omillar ichida iqtisodiy o‘shish sur‘atlari, inflyatsiya darajasi, soliq bazasining kengligi, davlat qarzi hajmi, davlat xarajatlari samaradorligi va institutsional sifat alohida o‘rin egallaydi. Shu sababli budget barqarorligini ta‘minlash kompleks yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda davlat budjeti barqarorligiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy omillar va budget-soliq siyosatining samaradorligini baholash uchun kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etadi. Mazkur yondashuv budget tizimini iqtisodiyotning boshqa tarkibiy qismlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi. Tahlil jarayonida fiskal siyosatning iqtisodiy o‘shish, inflyatsiya, bandlik va investitsion faollikka ta‘siri kompleks ravishda baholandi. Davlat budjeti barqarorligiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy omillar Davlat budjeti barqarorligi mamlakat iqtisodiyotining umumiy holati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unga ta‘sir etuvchi omillar o‘zaro murakkab aloqadorlikni tashkil etadi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ijobiy dinamikasi budget daromadlarining ortishiga xizmat qilsa, salbiy tendensiyalar fiskal xavflarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, budget barqarorligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yalpi ichki mahsulotning o‘shishi. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) budget daromadlari shakllanishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi[2].

YAIM hajmining ortishi iqtisodiy faollikning kengayishini, ishlab chiqarish hajmining oshishini va aholining daromadlari ko‘payishini anglatadi. Natijada soliqqa tortish bazasi

kengayib, davlat budjeti daromadlari ortadi. Iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlari davlatning ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va investitsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi[3]. Aksincha, iqtisodiy pasayish yoki retsessiya davrida budjet daromadlari qisqaradi va fiskal bosim kuchayadi. Inflyatsiya fiskal siyosat samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan omillardan biridir. Mo‘tadil inflyatsiya iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishi mumkin, biroq yuqori inflyatsiya davlat xarajatlarning ortishiga olib keladi. Ayniqsa, byudjet tashkilotlari ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va ijtimoiy transferlar hajmini indeksatsiya qilish zarurati davlat xarajatlarini sezilarli ravishda oshiradi. Bundan tashqari, yuqori inflyatsiya investitsion muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini pasaytirishi mumkin[4].

Davlat qarzi fiskal barqarorlikning muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi. Davlat qarzining ortib borishi budjet xarajatlari tarkibida qarzni xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar ulushining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Qarz mablag‘lari iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladigan investitsion loyihalarga yo‘naltirilsa, ular iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq qarz mablag‘larining samarasiz ishlatilishi uzoq muddatda fiskal xavflarni kuchaytiradi[5].

Budjet barqarorligining eng muhim omillaridan biri barqaror va keng soliq bazasining mavjudligidir. Soliq ma‘murchiligini takomillashtirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish budjet daromadlarining o‘shishiga xizmat qiladi. Soliq yukining haddan tashqari oshirilishi biznes faolligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli zamonaviy fiskal siyosatning asosiy vazifalaridan biri optimal soliq muhitini yaratish hisoblanadi[6].

Budjet taqchilligi davlat xarajatlarning daromadlardan ortib ketishini anglatadi. Taqchilikning ma‘lum darajada mavjud bo‘lishi iqtisodiy rivojlanish uchun xavf tug‘dirmasligi mumkin, biroq uning uzoq muddat davomida yuqori darajada saqlanishi davlat qarzining ortishiga olib keladi. Shu sababli ko‘plab mamlakatlarda budjet taqchilligini YAIMga nisbatan ma‘lum chegaralarda ushlab turish amaliyoti qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalari davlat budjeti barqarorligi makroiqtisodiy muvozanatning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatdi. Fiskal barqarorlik iqtisodiy o‘shish, inflyatsiya, davlat qarzi va soliq siyosati bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, budjet daromadlarini oshirishning eng samarali yo‘li soliq stavkalarini oshirish emas, balki iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va soliqqa tortish bazasini kengaytirishdan iboratdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyasini boshqarish tizimida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, natijadorlikka asoslangan budjetlashtirishni keng joriy etish

hamda budget xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish fiskal barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, davlat qarzini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, qarz portfelini diversifikatsiya qilish va fiskal risklarni muntazam monitoring qilish uzoq muddatli moliyaviy xavfsizlik .

Xulosa: Davlat budgetining barqarorligini ta'minlash mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va moliyaviy xavfsizligining muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot davomida budget barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy makroiqtisodiy omillar tahlil qilinib, ularning fiskal siyosat bilan o'zaro bog'liqligi aniqlandi.

REFERENCES

1. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill Book Company, 1989. – 627 p.
2. Stiglitz J.E., Rosengard J.K. Economics of the Public Sector. – 4th ed. – New York: W.W. Norton & Company, 2015. – 960 p.
3. Tanzi V. Government versus Markets: The Changing Economic Role of the State. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 390 p.
4. Schick A. Budgeting for Fiscal Space and Government Performance Beyond the Great Recession. – Paris: OECD Publishing, 2009. – 145 p.
5. Alesina A., Perotti R. Fiscal Discipline and the Budget Process // American Economic Review. – 1996. – Vol. 86. – No. 2. – P. 401–407.
6. Barro R.J. Government Spending in a Simple Model of Endogenous Growth // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98. – No. 5. – P. 103–125.
7. Buchanan J.M. Public Finance in Democratic Process: Fiscal Institutions and Individual Choice. – Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1967. – 305 p.
8. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – 472 p.
9. Friedman M. Capitalism and Freedom. – Chicago: University of Chicago Press, 1962. – 202 p.
10. Blanchard O. Macroeconomics. – 8th ed. – New York: Pearson Education, 2021. – 592 p.
11. International Monetary Fund. Fiscal Monitor: Fiscal Policy under Uncertainty. – Washington D.C.: IMF Publication Services, 2025. – 128 p.
12. International Monetary Fund. Government Finance Statistics Manual 2014. – Washington D.C.: IMF, 2014. – 446 p.